


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX VA IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI
UMUMIY TARIX KAFEDRASI
2- bosqich “ V ” guruh talabasi
Mamajonova Shoirra**

РЕФЕРАТ



Mavzu: VII - XI arslarda Arab xalifaligi madaniyati.

Ilmiy rahbar:

katta o‘qituvchi D. Musaev

ANDIJON – 2013.

Mavzu: VII - XI arslarda Arab xalifaligi madaniyati.

Reja:

Kirish.

1.Asosiy qism: . Islom sivilizatsijasining umumiy xususiyatlari va uning jaxon tarixidagi roli.

- a) . Islomda mazxablarning munosabatlari. Madaniyat, ilm-fan va adabiyot.
- b) Jahon ma'daniyati tareqqiyotida arab miniatyurasining yuzaga kelishi.
- s) Arab miniatyurasining o`ziga xos uslubi.

Xulosa.

Adabiyotlar.

Ilovalar.

Kirish. Mavzuning dolzarbligi.

Islom (arab. — bo'ysunish, itoat etish, o'zini Alloh irodasiga topshirish) — jahonda keng tarqalgan uch dindan (buddizm va xristianlik bilan bir qatorda) biri. Islomdiniga e'tiqod qiluvchilar arabcha "muslim" ("sadoqatli"; ko'pligi "muslimun") deb ataladi. "Muslim", "muslimun" so'zining boshqa xalqlar orasida o'zgacha talaffuz etish (mas, forslarda — musulmon, o'zbeklarda — musulmon, qirg'iz va qozoqlarda — musulmon, Ukraina va Rossiyada — basurman) natijasida bu dinga e'tiqod qiluvchilar turli nom bilan ataladi. Lekin bularning ichida hozir musulmon iborasi keng tapqalgan. Jahonda qariyb 1,2 mlrd. kishi Islomgaga e'tiqod qiladi. Musulmonlarning 2/3 qismidan ko'prog'i Osiyoda yashaydi va bu qit'a aholisining 20% idan ortiqrog'ini tashkil etadi. Qariyb 30% musulmonlar Afrikaga to'g'ri keladi (qit'a aholisining deyarli yarmi). Dunyoda musulmon jamoalari mavjud bo'lgan 120 dan ortiq mamlakatdan 40 dan ziyodida musulmonlar aholining ko'pchiligini tashkil qiladi — Shim. Afrika, G'arbiy Osiyoning barcha mamlakatlarida (Kipr, Livan, Isroil mustasno), Senegal, Gambia, Niger, Somali, Afg'oniston, Pokiston, Bangladesh, Indoneziya va boshqalar ba'zi mamlakatlarda aholining 80% dan ortig'i musulmonlardir; bir qancha mamlakatlarda musulmonlar aholining yarmidan 80% igacha tashkil qiladi (Gvineya, Mali, Livan, Chad, Sudan). Malayziya va Nigeriyada qariyb yarmi, ba'zi bir mamlakatlar (Gvineya-Bisau, Kamerun, Burkinafaso, Syerra-Leone va b.) da musulmonlar ozchilikni tashkil qilsa ham, ta'sir doirasi kuchli¹. Musulmonlarning soni jihatdan eng yirik davlatlar — Indoneziya, Hindiston, Pokiston va Bangladesh; musulmonlarning anchasi Markaziy Osiyo mamlakatlari, Xitoy, Tailand, Efiopiya, Tanzaniya, Kiprda, Yevropaning ayrim mamlakatlari (Yugoslaviya, Albaniya, Buyuk Britaniya, GFR, Fransiya va boshqalar), Shimoliy va Jannubiy Amerika qit'asi mamlakatlari (AQSH, Kanada, Argentina, Braziliya, Gayana, Surinam, Trinidad va Tobago)da, Avstraliyada, Fiji orollarida yashaydi. Islom 7-asrda Hijoz (G'arbiy Arabiston) da paydo bo'ldi. Uning asoschisi Muhammad (as)dir. Islom dinining paydo bo'lishi xususida Islom manbalariga asoslangan diniy an'anada u ilohiy hodisa, insonlarni to'g'ri yo'lga solish uchun Alloh tomonidan yuborilgan oxirgi ta'limot deb uqtiriladi. Islom talqinida dastlab yahudiy va xristianlar ham aynan musulmonlar e'tiqod qilgan xudoga ishonganlar. Shu xudo, ya'ni Alloh odamlarga payg'ambar-elchilar yuborgan. Ammo insonlar payg'ambarlar ta'limotini buzganlar. Shuning uchun Alloh insonlarga oxirgi rasul etib Muhammad (sav)ni tanladi, unga o'zining kalomi — Qur'onni nozil qildi. Muhammad (sav) oldin o'z hamshaharlarini, so'ng barcha arablarni ko'plab qabila xudolariga sig'inishdan voz kechish va yagona xudo — Allohga e'tiqod

¹ Karimov I., Olloh qalbimizda, yuragimizda, T., 1999
www.islom.uz

qilish, solih hayot kechirish, u dunyoda jannatga tushish uchun bu dunyoda ezgu ishlar qilishga da'vat etdi. Qur'onga ko'ra, arablar va yahudiylarning umumiy bobokaloni Ibrohim Allohga birinchi bo'lib imon keltirgan. Demak, Islom batamom yangi e'tiqod emas, balki Ibrohimning qayta tiklangan dinidir. Islom dini tarixini o'rganishda o'sha davrdagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarni hisobga olish kerak. Islom dini vujudga kelgan davrda Arabiston yarim orollarida Makka va Yasrib (Madina) kabi shahar-davlat (polis)lar boshqalarga nisbatan muayyan ustunlikka ega edilar. Bu shaharlar xalqaro savdning eng yirik markazlaridan bo'lib, iqtisodiy hayot jo'shqin tus olgandi. Shahar-davlatning kelajak taraqqiyoti uchun polis tuzumi torlik qila boshlagan. Hijoz (Makka, Yasrib, Xaybar, Dumat al-Jandal, Tayma va b.) va umuman Arabistonni xalqaro savdoni barqaror qiladigan, fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga qodir harbiy kuchga ega bo'lgan yagona saltanatga aylantirish davr talabi bo'lib qolgan edi. Saltanat tuzish bilan bir katorada Arabiston yarim orollaridagi qabilalarning etnikva madaniy jihatdan birlashuvi, yagona arab tili, og'zaki va yozma adabiyot, umumiy fikrlashning shakllanishi va nihoyat, arablarning diniy tafakkurida o'zgarish jarayonlari kechayotgan edi. Bunday harakatni boshqargan kishilar o'z faoliyatlarini ilohiy ilhom bilan asoslay olgan holdagina muvaffaqiyatga erisha olardi. Shunday qilib, Muhammadning diniy va siyosiy faoliyati yuqoridagi jarayonlarning xususiy ko'rinishi bo'lgan². Muhammad (sav) har tomonlama barkamol inson bo'lgani uchun, uning shaxsiy fazilatlari tufayli yahudiyxristian mazhablariga yaqin g'oya bilan yashovchi mahalliy hijozliklar harakati o'ziga xos xususiyatlar kasb etdi, diniy va siyosiy kuchga ega bo'ldi; bu kuch Islomning vujudga kelishini eng muhim tarixiy voqealardan biriga aylantirdi. Muhammad 610 yil, 40 yoshida o'zining diniy faoliyatini boshladi va vahiy (ilohiy ko'rsatma) olayotganini e'lon qildi. Ammo, bir necha nufuzli yaqin qarindoshlarini hisobga olmaganda, Makkaning ko'pchilik aholisi, ayniqsa, Quraysh qabilasining zodagonlari uning targ'ibotlariga ochiqdan-ochiq qarshi chiqdilar. Muhammad o'zga yerlarda tarafdorlar izlashga majbur bo'ldi. Dastlab bir guruh musulmonlar Habashistonga ko'chdi, so'ng Makka zodagonlari bilan ma'lum davrdan buyon raqobatlashib kelayotgan Yasribdagi banu Avs va banu Xazraj qabilalarining vakillari 622 yil. musulmon jamoasini o'ziga qabul qilish, Muhammadni umumiy rahnamo sifatida tan olishga rozi bo'lishdi. Yasrib shahridagi mavjud etnik vaziyat ham shuni taqozo etgandi. Hijra nomini olgan bu voqea Islom tarixida burilish yasadi. Ko'chib o'tgan kishilar muxojirlar (ko'chib kelganlar), Madinada Islomni qabul qilganlar ansorlar (tarafdorlar) deb ataldilar. Madina va Makka o'rtasida boshlangan kurash 8 yil davom etdi 628 yil. Makka zodagonlari Muhammad bilan kelishishga majbur bo'ldilar (630 yil musulmonlar ko'shini hech qanday qarshiliksiz Makkaga kirib bordi. Makka aholisi yoppasiga Islom dinini qabul qildi va Muhammad (sav)ni Allohning elchisi (rasuli) deb e'tirof etdi. Ana shundan boshlab Makka

² ; Hasanov A., Qadimgi Arabiston va ilk islom (1-kitob: Johiliya asri), T., 2001;

Islom dini markaziga, Ka'ba musulmonlarning muqaddas ziyoratgohiga aylangan. Muhammad (sav) vafot etgan 632 yilda Arabiston yarim oroli to'la birlashtirilgan, uning aksariyat aholisi Islom dinini qabul qilgan edi. Arabistonning siyosiy, iqtisodiy, etnik va madaniy jihatlardan birlashishida Islom dini muhim omil bo'lib xizmat qildi va kelajakda vujudga kelgan musulmon olamining mafkurasiga aylandi. Muhammad (sav) vafotidan so'ng Abu Bakr, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib payg'ambarning o'rinbosari (xalifa) sifatida hukmronlik qildilar. Ular va ulardan keyingi xalifalar 7—8-asrlarda Iroq, Falastin, Suriya, Eron, Movarounnahr, Misr, Shim. Afrika, Pireney yarim orolning Shimoliy. Hindistonni egalladilar. Bir asrdan kamroq vaqt davomida Shim. Xitoydan Ispaniyagacha, Kavkaz ortidan Hind okeanigacha bo'lgan katta hududni zabt etdilar va Islom dinini yoydilar. Islomning muqaddas kitobi Qur'ondir. Musulmonchilikda bu kitobning butun mazmuni Allohning vahiy qilingan so'zi deb tushuniladi. Islomning aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy me'yorlari, cheklash va taqiklari Qur'on bilan birga uning tafsirlarida, hadis to'plamlari va shariat qo'llanmalarida, shuningdek, 8—12-asrlarda vujudga kelgan ilohiyot adabiyotlarida o'z ifodasini topgan³. Islomning asosiy aqidasi — "Allohdan boshqa iloh yo'q va Muhammad uning rasuli". Islom ilohiyotining ilk shakli — kalom bo'lib, 8-asrda arab xalifaligida vujudga kelgan. Mutakallimlar Islom dini aqidalarini ishlab chiqqanlar.

Islom dini 5 "asos" yoki "ustun" (arkon ad-din al-islomiy)ga ega: 1) kalima keltirish; 2) namoz o'qish; 3) ro'za tutish; 4) zakot berish; 5) imkoniyat topilsa haj qilish. Shulardan birinchisi imon va qolganlari ibodat deb e'tirof etilgan. Imon 7 aqidani — Allohga, uning farishtalariga, muqaddas kitoblariga, payg'ambarlariga, oxirat kuniga, taqdir (yaxshilik va yomonlik Allohning irodasi bilan bo'lishi)ga va o'lgandan keyin tirilishga ishonishni o'z ichiga oladi. Islomda xatna, ro'za hayiti, qurbonlik va qurbon hayiti, aqiqa, mavlid, xudoyi, ashuro kabi o'ziga xos diniy marosimchilik tarkib topgan. Bundan tashqari, mahalliy xalqlarda Islomgacha mavjud bo'lgan urfodatlar, jumladan, fol ochirish, dam soldirish, aziz-avliyolarga, muqaddas joylarga sig'inish ham Islom marosimchiligiga moslashib ketgan.

1. Islomda mazxablarning munosabanlari. Madaniyat, ilm-fan va adabiyot.

Islomda ilk davrdan paydo bo'lgan eng birinchi yirik muammo — oliy hokimiyatni egallashga payg'ambardan keyin kim haqliroq, degan masala bo'ldi. Ali tarafdorlari "shia" nomini olib, Islomda birinchi bo'linishni boshlab berdilar. Uchinchi xalifa Usmon aynan shu bo'linishning qurboni sifatida jon taslim qildi. Ikki taraf — sunniylik va shialik o'rtasidagi kurash asnosida xorijiyalar deb atalgan uchinchi yo'nalish ham paydo bo'ldi. Ammo Islom tarixi uzra sunniylik

³ ; Komilov N., Tasavvuf, T., 1999

www.ziyouz.com

asosiy yo'nalish bo'lib keldi. O'rta asrlarda hukmronlik qilgan abbosiylar, saljuqiylar, ayyubiylar, mamluklar, usmonli turklar, temuriylar sulolalari sunniylikda edilar. Hozgi kunda ham sunniylar musulmonlarning mutlaq ko'pchiligi (93%)ni tashkil etadi. Birdan-bir davlat — Eronda shialik rasmiy diniy yo'nalish sifatida qabul qilingan. Iroq, Livan, Shimoliy Yaman, Ozar-bayjon va Afg'onistonda shialarning yirik jamoalari mavjud. Ummon va Shimoliy Afrikada xorijiytlarning ba'zi toifalari saklanib qolgan. Musulmon huquqshunosligi — fiqhda 4 sunniy (hanafiylik, shofi'iylik, molikiylik, hanbaliylik) va 1 shia (jafariylik) mazhablari shakllangan. Mazhablar diniy firqalardan farq qiladi. Firqalar, asosan, geografik va iqlimiy omillar hamda Islomni qabul qilgan xalqlarning oldingi madaniyati, an'analari va diniy tasavvurlari ta'sirida vujudga kelgan. Ularning aksariyati shia yo'nalishiga mansub bo'lib, eng yiriklari — imomiylar, ismoiliylar va zaydiylardir. Islomda ilk davrlardan shariat (barcha to'la rioya kdpishi kerak bo'lgan qonunchilik) bilan tariqat (faqat ayrimlar Alloh. xayrixoxligiga muyassar bo'lishi mumkinligi) yonma-yon rivojlanib kelgan⁴. Tariqat asoschilari — murshidlarning "valine'mati" asrlar osha hozirgi avlodgacha yetib keladi, degan tushuncha bor. 8—9-asrlarda Islomda diniyfalsafiy oqim — tasavvuf paydo bo'ldi. Sharqda eng mashhur bo'lgan tasavvuf tariqatlari — naqshbandiylik, qodiriylar. Arablar yuksak madaniyat yaratganlar. Bu madaniyat tarixga Arab xalifaligi madaniyati nomi bilan kirdi. Xo'sh, buning sabablari nimalardan iborat edi?

Avvalo, Arab xalifaligida nisbatan tinch, osoyishta hayot ta' minlangan. Bu esa xo'jalik (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdosotiq)ning yanada yuksalishiga imkon bergan. Bu omil o'z navbatida madaniyatning taraqqiy etishiga shart-sharoit yaratgan.

Ikkinchidan, istilo natijasida xalifalikka birlashtirilgan turli o'lka xalqlari (Suriya, Misr, Eron; o'rta Osiyo, Kavkazorti, Shimoliy Hindiston)ning ilg'or madaniyati imkon qadar bir-birini boyitdi. Bu o'rinda yagona davlat tili - arab tilining ilm-fan tiliga aylanganligi katta ro'l o'ynagan. Buyuk allomalar qaysi xalq vakillari bo'lmasin, arab tilida ijod qilganlar. Bu omil xalifalik tarkibidagi turli xalqlarga bir-birining madaniyati yutuqlaridan foydalanishga imkon yaratgan. Binobarin, xalifalik madaniyatini faqat arablar emas, xalifalik tarkibiga kirgan barcha xalqlar yaratganlar.

Uchinchidan, arablar ham o'zlari istilo etgan o'lka xalqlarining ilg'or madaniyati durdonalarini qunt bilan o'rganganlar.

To'rtinchidan, Mansur, Horun ar-Rashid, Ma'mun kabi abbosiy xalifalar ilm-fan, madaniyat rivojiga homiylik qilganlar. Bu omillar, shubhasiz, madaniyatning yuksak darajada taraqqiy etishini ta'minlagan.

⁴Husniddinov. Islom: yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar, T., 2000

1)San'at.

Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyatida san'at, ayniqsa, me'morchilik san'ati alohida o'rin tutgan.

Go'zallikda tengi yo'q hukmdorlar saroylari soya-salqin, yam-yashil bog'lar ichida bunyod etilgan. Ularda favvoralar mavjud bo'lgan.

Shahar me'morchiligi ham juda rivojlangan. Shahar ko'chalariga tosh yotqizilgan. Ko'chalar chiroqlar bilan yoritilgan. Masjidlar shahar ko'rkiga-ko'rk qo'shgan. Masalan, VIII - IX asrlarda Qurdobada bunyod etilgan masjidga 600 dan ortiq marmar ustun ishlatilgan. Ustunlar nihoyatda nafis bo'lib, ular masjidga ulug'vorlik baxsh etgan. Qohira shahridagi Hasan masjidi tepasiga qurilgan balandligi 55 metrli gumbaz ham kishilarni hayratga solgan. Arab quruvchilari ajoyib saroylar, maqbaralar va qal'alar qurishlari bilan shuhrat qozonganlar. Amirning Ispaniyaning Granada shahridagi Al-Humro saroyi butun dunyoga mashhur. Halifalikning har bir shahrida albatta masjidlar bunyod etilgan. Masjidda namoz o'qishdan tashqari, shuningdek, shariyat sudining majlislari o'tkazilgan, kambag'allar uchun to'plangan pullar saqlangan, bu yerga butun tevarak-atrofdagi musulmonlar kelishgan. Aynan shu tufayli masjid qurilishiga katta e'tibor berilgan. Masjidning asosiy binosi – hovliga qaratib qurilgan to'rtburchakli zal. Hovli ustunli ayvonlar bilan o'ralgan, u yerda musulmonlar quyoshdan saqlanganlar. Hovli o'rtasida namoz boshlanguncha tahorat olish uchun hovuz Joylashgan. Ba'zan hovli tepasi gumbaz bilan yopilgan. Masjid yonida albatta minora bo'lgan. Ammo masjidning eng muhim va mo'tabar qismi mehrob edi. Bu masjidning Makkaga qaratilgan devoriga ishlangan mahsus tokcha bo'lgan. Namoz paytida musulmonlar yuzlarini mehrobgga qaratishadi. O'zining hashamati, boy naqshlari bilan bir necha masjidlar musulmonlar orasida shuhrat qozongan. Ularning orasida Fustatdagi VII asrda qurilgan Amir masjidi, Kufadagi Jome masjid, Makkadan so'ng o'z ahamiyati jixatidan musulmonlarning ikkinchi muqaddas sajdagohi hisoblangan Quddusdagi Al-Aqso masjidi va Damashqdagi mashhur "Qoya gumbazi" ibodatxonasini aytish mumkin. Islom odamlar va hayvonlar tasvirini tushirishni qoralagan.

2)Ilm-fan taraqqiyoti.

Ilm-fan taraqqiyoti yo'lida arablar qadimgi yunon Ulamolarining asarlarini qunt bilan o'rganganlar. Ulardan eng muhimlari arab tiliga tarjima qilingan. Bular: Aristotel, Arximed, Gippokrat, Ptolomey, Yevklid kabi allomalarning asarlari edi. Bu asarlarning arab tilidagi nusxalari lotin tiliga qayta tarjima qilingan. Yevropa olimlari shu tarjimalar orqali bu asarlardan bahramand bo'lganlar.

Yirik shaharlar ilm-fan markaziga aylangan. Bag`dod, Qurdoba, Qohira kabi shaharlarda yirik oliy o`quv yurtlari - madrasalar ochilgan. Ularda diniy bilimlar qatori dunyoviy ilmlar ham o`qitilgan. Minglab kitob xazinasiga ega bo`lgan kutubxonalar qurilgan.

Xalifa Horun ar-Rashid (786-809) Bag`dod shahrida ilm-fan markazi bunyod ettirdi. Bu markaz "*Bayt ul-hikmat*" deb ataldi.

Xalifa Ma'mun (813-833) „Bayt ul-hikmat"ning har tomonlama mustahkamlanishiga katta hissa qo`shgan.

Bag`dod, Damashq kabi shaharlarda katta-katta rasadxonalar bunyod etilgan.

Xalifalik xalqlari madaniyati Yevropaga kuchli ta'sir ko`rsatgan. Bu o`rinda arablarning Pireney yarim oroli (hozirgi Ispaniya)da tashkil etgan Qurdoba xalifaligi alohida o`rin tutgan. Qurdoba shahrida 27 ta oliy o`quv yurti (madrasa) ochilgan edi. Bu o`quv yurtlarida mashhur olimlar, shu jumladan, musulmon bo`lmagan olimlar ham dars berishgan. o`quv yurtlarida arablardan tashqari Yevropaning turli mamlakatlaridan kelgan talabalar ham saboq olishgan.

Aniq fanlarning yuksak taraqqiyoti bu davr mamlakatlari madaniyatining o`ziga xos xususiyatidir. Bu fanlar ravnaqiga eng ko`p hissani buyuk bobolarimiz qo`shganlar. Ular orasida Muhammad

Al – Xorazmiy va Ahmad Al - Farg`oniy alohida o`rin tutadi . Al-Xorazmiy algebra fanining asoschisidir. Xalifa Horun ar-Rashid uni Bag`dodga taklif etgan. Keyinchalik u „Bayt ul-hikmat"ga rahbarlik ham qilgan. Al-Xorazmiy hindlarning o`nlik raqam tizimini mukammallashtirgan. Buning natijasida har qanday sonni ham o`nlik sanoq tizimiga kiruvchi raqamlar bilan ifodalash mumkin bo`lgan. Bu hodisa o`sha davr uchun buyuk kashfiyot edi. Uning nomi algoritmi tushunchasiga aylandi va tarixda abadiy qoldi. VIII – X a.larda Arab halifaligining ulkan hududida arab tili muloqot tili bo`lgan. Bu tilda Qur'on yozilgan. Shuning uchun o`sha davrdagi barcha olimlar va faylasuflar o`z asarlarini arab tilida yozishgan, qadimgi davrning eng muhim asarlarini arab tiliga tarjima qilishgan, maktablarda arab tili o`qitilgan. Arab tilini "Sharqning lotin tili" deb atashgan, uning keng tarqalishi esa shunga olib keldiki arablarning yagona davlati tarkibiga kirgan barcha mamlakatlar madaniyatini ham arab yoki musulmon madaniyati deb atay boshlashgan. Arab halifaligi yuksak qadimiy madaniyatga ega bo`lgan ko`plab mamlakatlardan iborat edi. Ushbu yerlar bo`ysundirilgan bo`lishiga qaramay, bu o`lkalarning madaniyatlari rivojlanishda davom etgan. Albatta, bu madaniyatlar xalifalik tarkibidagi boshqa mamlakatlar va halqlarning madaniyati bilan aralashib ketgan va ular bir-birlariga ta'sir qilishgan.

Shunday qilib, arab madaniyati bosib olingan xalqlar va davlatlar: forslar, sur'oniylar, yahudiylar, O`rta Osiyo halqlarining madaniy yutuqlaridan ko`pini o`ziga singdirgan. Arablar

ellinistik rim madaniyati merosidan ham keng foydalanishgan. Chunonchi, arablar forslar orqali hindlarning matematika va astronomiya sohasidagi yutuqlari bilan tanishganlar. Ular hindlar raqamlarni olishgan, evropaliklar ularni arab raqamlari deb ataganlar. Harbiy yurishlarda hitoyliklar bilan to'qnash kelgan arablar kompasdan foydalanish qulayligini tez anglab olganlar va uni faol suratda amaliyotda qo'llay boshlaganlar. Arab madaniyatining eng ravnaq topgan davri VIII – XI asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda qadimgi arab sheyriyatining ko'p asarlari yaratilgan. Aynan shu asarlar, shuningdek Qur'on klassik (mumtoz) arab tilini yaratishda asos bo'lib hizmat qilgan VII – VIII a.lardagi arab she'riyati ko'p jixatdan eski an'analarni davom ettirgan. Shoirilar jangchilar jasorati, sevgi, hursandchilikni tarannum etishgan. Proza (nasr)da huddi evropaliklar kabi arablarda ham sarguzasht hikoyalar keng tarqalgan. Aynan ularning mazmuni asosida X–XV a.larda mashxur “Ming bir kecha” ertaklari to'plami shakllangan. Odatda arab ertaklari deb hisoblanuvchi bu ertaklar orasida aslida fors va hind hamda yunon ertaklari ham saqlangan. Shu tariqa arablar o'zlari hohlamagan holda ko'p halqlarning ma'naviy hazinasini asrab bizning kunlarga etkazib kelganlar. VIII asr o'rtasidan boshlab halifalar kutubhonasi uchun falsafa, matematika, meditsina, astronomiyaga oid asarlar yunon, sur'oni va fors tillaridan arab tiliga o'girilgan. Bag'dodda Horun ar-Rashid davrida olimlar va tarjimonlar uchun mahsus “Bayt ul hikmat” (“Donishmandlik uyi”) qurilgan, unda olimlar uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan, ular kundalik ovqatni o'ylamay ijod qilardilar. Halifalikning har bir yirik shahrida IX asrda barcha uchun mo'ljallangan ommaviy kutubhona faoliyat yuritgan. Aristotel, Platon. Pifagor, Evklid, Arhimedlarning asarlari arablarga yaxshi tanish bo'lgan. Aynan arab matematiklari, avvalambor. Al-Horazmiy ajoyib algebra fanini yaratishgan. Uning nomi arabcha “al jabr”, ya'ni hisobdan olingan. Bag'dod va Damashqda mahsus qurilgan rasadxonalarda buyuk matematiklar bilan birga, ulardan qolishmaydigan iqtidorli astronomlar ham ishlaganlar. Ular Yer atrofini hisoblab chiqishgan, osmondagi yulduzlar holatini ba'yon etishgan. O'sha davrning eng buyuk allomalaridan biri al-Beruniy edi. U geografiya, tarix, astronomiya va hatto she'r tuzish san'atiga doir ham asarlar yozgan. Musulmon olimlari ichidagi boshqa bir mashhur shaxs buyuk Ibn Sino bo'lgan. U shunchalik shuhrat qozongan ediki, hatto evropaliklar uning ismini hurmat extirom bilan o'zlariga moslab Avitsenna deb atashgan. Faylasuf, astronom, geograf, shoir, vrach bo'lgan Ibn Sino o'zidan 100 dan ortiq ilmiy asar qoldirgan. “Shifo kitobi” va “Tib qonunlari” asarlarida u dunyoda birinchi bo'lib ko'p kasalliklarning alomati va ularni davolash usullarini ba'yon qilgan. Zamondoshlari Ibn Sinoni hurmat bilan “Olimlar boshlig'i” deb atashgan. Arablarning sevimli iborasi quyidagicha edi: “Kimki ilm izlab yo'lga tushar ekan, uning oldida jannat darvozalari ochiladi”. Shuning uchun arablar o'rtasida ko'plab iqtidorli geograflar va sayohatchilar bo'lgan. Arab olimlari nafaqat boshqa mualliflar tomonidan tuzilgan mamlakatlar ba'yonini o'rganishar, balki o'zlari ham

ekspeditsiyalarga yo'l olganlar. Hayotlarini havf ostiga qo'ygan holda ular uzoq yerlarga sayohat qilardilar. Arablar nafaqat bosib olingan hududlar tasnifini tuzishgan, balki ularga dushman bo'lgan mamlakatlarning yerlarini ham batafsil ba'yon qilishgan. Ko'p asrlardan so'ng Evropa olami halifalar kutubxonasida Amerika kashf etilishidan deyarli 5 asr muqaddam va Antarktidaning ochilishidan 10 asr avval, ushbu qit'alarining qirg'oqlari qiyofasi tushirilgan xaritalar saqlanganligini bilib hayratga tushgan. Ammo arab halifalarisaro'yida barcha fanlar ichida alohida e'zozlanadigan fan tarix edi. Darhaqiqat bu fan arablarda islom bilan barobar dunyoga kelgan, chunki aynan u Muhammad payg'ambar va uning ishlari haqidagi hadislarini, dastlabki halifalar va ularning futohotlari haqidagi ma'lumotlarni saqlab kelgan. Islom tarixi, shuningdek o'z urug'i tarixini bilmaslik musulmonlarda eng katta gunoh sanalgan. Halifalar va oliy amaldorlar olimlar va ularning asrlariga homiylik ko'rsatishgan. Har bir oliy martaba egasi o'z atrofida iloji boricha ko'proq buyuk olimlar, shoirlar va Qur'on bilimdonlari bo'lishini istagan. Amaldor saroyida o'z ilmi bilan mashhur bo'lgan kishilar qancha ko'p bo'lsa, uning obro'si shunchalik baland bo'lgan. Hukmdorlarning ilm-fan va olimlarga bo'lgan muhabbatini tushunish oson edi; Qur'onda har bir musulmon uchun ilm olish farz ekanligi aytilgan. Shuning uchun nafaqat amaldorlar va hokimlar, balki payg'ambarning har bir ummati, agar u davlatda biron bir lavozimni egallashni istasa albatta u ma'lumotli bo'lishi lozim edi. I.ning rivojlanishiga Movarounnahrda yetishib chiqqan allomalar kat-ta hissa qo'shdi. Imom Buxoriy kitob holiga keltirgan hadislar to'plami — "Al-Jomi' as-Sahih" Islom dinida Qur'-oni karimdan keyingi ikkinchi man-ba hisoblanadi. Buxoriy va uning safdoshlari Islom ilohiyotining barcha yo'nalishlari bo'yicha muhim tadqiqotlar qildilar. Jumladan, Islom nazariyotchiligida yuqori baholanadigan "Ilal ashshariat va Xatm ul-Asliyyot" risolasini ta'lif etgan Hakim Termiziy, Islom huquqshunosligini o'rganishning asosiy qo'llanmasi hisoblangan "Hidoya"ning muallifi Burhoniddin Marg'inoniy, Islom aqidasi asoslarini muayyan tartibga solgan, kalom ilmida maktab yaratgan Imom Moturidiy buyuk faqih Abu Lays Samarqandiy, musulmon dunyosining eng e'zozli muxaddislaridan Iso Termiziy, qomusiy ilmlar sohibi, xususan, tafsir, hadis, shariat qonunshunosligida salmoqli asarlar bitgan Zamaxshariy, tasavvufda o'ziga xos iz qoldirgan Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Mahdumi A'zam, Najmiddin Kubro, So'fi Olloyor, Xo'ja Ahror, Abduxoliq G'ijduvoni va b.ni misol qilib keltirish mumkin. Ular musulmon e'tiqodini xalq dunyoqarashi bilan uyg'unlashtirganliklari tufayli O'rta Osiyoda madaniy hayotning adabiyot, me'morlik, musiqa kabi sohalarida taraqqiyot yuzaga keldi. Islom dini musulmon mamlakatlari san'atida o'z izini qoldirdi. Me'morlik sohasida bu jarayon yangi imorat turlari (masjid, minora, xonaqoh, Madrasa va boshqalar.)ning paydo bo'lishiga hamda keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Islom dini paydo bo'lgan davrda avj olgan butpa-rastlik, suratparastlikni oldini olish maqsadida Muhammad (as) suratkashlikni qattiq taqiqlab qo'ygan

edi. Shy asosda Islomning yirik mutafakkir huquqshunoslari ham tasviriy san'atning bu turini taqiqlangan ishlar qatoriga qo'shganlar. Bundan ular amaliy san'at turlari, naqsh, bezak, insondan boshqa hayvon va o'simliklar suratini istisno qilishgan. Islomda inson suratini chizish yoki uning haykalini yasashning taqiqlanishiga asosiy sabab — payg'ambar va aziz-avliyolarning rasmlarini chizib yoki haykallarini yasab, ularga sig'inib ketish xavfining mavjudligi bo'lgan. 15-asrga kelib Alisher Navoiy kabi taraqqiyparvar olim va mutafakkirlar musulmonlar qalbida Allohga bo'lgan imon va e'tiqod mustahkamlanib, suratparastlikka mutlaqo moyillik qolmaganini e'tiborga olib, endilikda inson suratini chizishga ruxsat berishlikni lozim deb topganlar. Natijada Behzod, Maxmud Muzahhibga o'xshash miniatyura san'atini rivojlantirgan yetuk musavvirlar yetishib chiqqan, Hirot miniatyura maktabi, Buxoro miniatyura maktabi kabilar rivojlangan. 20—21-asrlarga kelib, Islom dunyosi ulamolarining bu san'atga munosabatlariga yana bir karra aniklik kiritildi: ilohiylashtirish va odamlarning sig'inishi maqsadida inson rasmini chizish mumkin emasligi e'tirof etildi. Ammo, fotosuratlar, shuningdek, yosh bolalar uchun yasalgan odam shaklidagi qo'g'irchoklar taqiq doira-siga kirmaydi. Ulamolarning bergan fatvolariga ko'ra, musulmonlarga fahsh va uyat narsalarni ifoda etuvchi rasmlar, but, sanam va ikona tasviridan boshqa tasviriy san'at turlari taqiqlanmaydi. Islomning musiqaga munosabati haqida Diniy musiqa maqolasiga ega. Musulmon Sharqi 8—11-asrlarda taraqqiyotda G'arbdan oldinda edi: g'arb olimlari musulmon faylasuflari va tabiblaridan saboq olishgan; g'arb savdogari Islom dunyosidagi savdoning ko'lamiga havas bilan qaragan; sharq tovarlari g'arbda zebi-ziynat mollari hisoblangan. Sharq shaharlarining boyligi va hashamati g'arb uchun afsonadek tu-yulgan. Bularning barchasida asosiy mafkura vazifasini bajargan Islomning ijobiy xizmati buyuk, albatta. Ammo 12—13-asrlardan keyin musulmon dunyosi dastlab turg'unlik, so'ng tanazzulga yuz tuta boshladi. Ba'zilar konservativ (qotib qolgan) din sifatida Islom taraqqiyotga to'siq bo'ldi, deya unga katta ayb qo'ymoqchi bo'ladilar. Aslida so'nggi o'rta asrlarda yuz bergan musulmon dunyosining tushkunligi juda mu-rakkab ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq bo'lib, o'sha davrdagi Islomning o'zi ana shu tushkunlikning muayyan shaklidagi ifodasi edi. "Islom islohotchiligi" deb ataydilar, u xristian reformatsiyasidan tubdan farq qiladi. Bu tafovut, birinchidan, shundan iboratki, mazkur jarayonlar turli davrlarda, turlicha muayyan tarixiy sharoitlarda ro'y berdi. Ikkinchidan, "Islom islohotchiligi" dunyoviy hayotning turli jihatlarini diniy nuqtai nazardan qayta baholashda namoyon bo'ldi va sof ilohiyotga doir masalalarga u qadar daxli bo'lmadi. Uchinchidan, Islomda xristianlarnikiga o'xshash cherkov bilan ruhoniylarni bog'lab turuvchi tizim bo'lmaganidan Islomdagi islohotlar xususiyatiga jiddiy ta'sir qildi. Musulmonlarda savodhonlik va arifmetikadan saboq beruvchi boshlang'ich maktablar hususiy edi. Haq to'lay olganlar o'qituvchilar bilan uyda shug'ullanganlar. Agar kishi olgan ta'limini davom ettirishni istasa

madrasa – oliy musulmon maktabiga kirishi lozim bo'lgan. Bu yerda eng mashhur imomlar dars berishgan. Ular ma'ruza qilganlar va Qur'on, Sunna va shariat haqida suhbat o'tkazganlar. Bu yerda shuningdek yuksak me'morchilik san'atidan ham ta'lim berilgan⁵. Shuning uchun hajkaltaroshlik, va rassomlik halifalikning dastlabki asrlarida deyarli rivojlanmagan. Keyinchalik kitoblarga miniatyuralar chiza boshlashgan, unda halq hayotidan manzaralar, tarixiy voqealar va badiiy asarlar qahramonlari aks ettirilgan. Tabiatni tasvirlash imkoniga ega bo'lmagan musulmon rassomlari o'zlarining butun mahoratlarini husniyat san'ati taraqqiyotiga bag'ishlaganlar. Arab madaniyati va islom asivilizatsiyasi jaxon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Arablar tomonidan ochilgan ko'plab ilmiy kashfiyotlar haligacha o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan va amaliyotda qo'llanib kelinadi. Masalan, butun jaxon hozirgi paytda arablar tomonidan VII asrdayoq yaratilgan arab raqamlaridan foydalanib kelmoqda.

2.Jahon ma'daniyati tareqqiyotida arab miniatyurasining yuzaga kelishi.

Jaxon madaniyati taraqqiyoti tarixida Sharqiy Arabiston xalqlari san'atining xam muxim o'rni bor. Xalifalikning (Suriya, Misr, Falastin, Shimoliy Afrika, Eron, O'rta Osiyo, Janubiy Ispaniya) ko'pgina shaxarlarida rivojlangan O'rta asr arab madaniyati insoniyatning progressiv rivojlanishida Yangi bir bosqich bo'ldi. Sharqiy Arabiston xalqlarining asosiy xizmati shunda bo'ldiki, ular keyingi avlodlarga antik grek-rim madaniyatining ko'pgina yutuqlarini saqlab qolib, uni rivojlantirgan xolda yetkazib keldilar.

IX-XIII asrlar davomida Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Eron, Ozarbayjon va O'rta Osiyo xalqdari bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lib kelganlar. Boqdod, Sheroz, Tabriz, Samarqand kabi shaxarlar madaniyati va taraqqiyotning markazi bo'lib, o'zlarining ko'zga ko'ringan olimlari, shoirlari, xamda fan va madaniyat o'chokdari bilan butun dunyoga tanilgan edilar⁶. Tasviriy san'atning rivojlanishida tirik jonzo'tni tasvirlashni mann etgan islom dini ma'lum darajada tusqinlik qiladi. Ammo bu qarshiliklar tasviriy san'atning umumiy taraqqiyotini buka olmaydi. I. dinining muhim xususiyatlaridan biri — uni qabul qilgan xalqlar vakillari uchun I. aqidalarini ishlab chiqishda ishtirok etish imkoniyatini berganidadir. U o'ziga xos 3 taraqqiyot bosqichi yoki davrni o'tadi. Birinchisini, shartli ravishda, Qur'on davri deb atash mumkin. Qur'oni karimda o'z aksini topgan Arabiston aholisining diniy ongi darajasini ifoda etuvchi diniy-siyosiy va ijtimoiy qarashlar, huquqiy va axloqiy mezonlar butun musulmon olami uchun

⁵ www.islom.uz

⁶Ўзбекистон миллий энциклопедияси». Давлат илмий нашриёти

xrzigacha shak-shubhasiz umumiy qadriyat hisoblanadi. Deyarli 4 asr davom etgan ikkinchi davr Islomda umumislomiy ahkomlar hukmronligi ostida turli fikrlar yo'l qo'yilgani b-n ajralib turadi. Islomdagi yo'nalishlar, mazhablar va fiqaralar ana shu davrda paydo bo'ldi. Musulmonlarning diniy birligi hal qilib bo'lmaydigan muammo bo'lib qoldi. 10—11-asrlarda an'anaga sodiq sunniylar bilan imomiy shialar, mu'taziliylar hamda ash'ariylar o'rtasida munosabatlar, ayniqsa, keskinlashib ketdi. Xalifa Qodir (991 — 1031) an'anaviy Islomni qonun asosida barcha uchun majburiy bo'lgan davlat dini deb qaror toptirishga urinib ko'rdi. Shu maqsadda an'anaga sodiq ilohiyotchilar imzolagan "Dinning qodiriy ramzi" e'lon qilindi. Unda "haq din" deb e'lon qilingan an'anaviy diniy ta'limotning asosiy qoidalari mufassal bayon qilib berildi, undan chetga chiqish jazolashga loyiq e'tiqodsizlik deb qaraldi. Biroq bu tadbir ham I.da diniy birlik o'rnatilishiga olib kelmadi. G'oyaviy kurash keyingi asrlarda ham davom etdi. Bu kurashda sunniylar ilohiyotchisi Ibn Taymiya ayniqsa ajralib turdi. U ilk islomni tiklashga, "haq din" asosida diniy birlikni o'rnatishga astoydil harakat qildi. Islomdagi uchinchi taraqqiyot bosqichi musulmon dunyosi "chekka" o'lkalarining ahamiyati va o'rne ortganligi bilan bog'liqdir. Batamom o'zga madaniy an'analarga ega bo'lgan xalqlar musulmon dunyosining ma'naviy hayotiga qo'shilgach, I.ga o'z diniy-axloqiy tasavvurlari, huquqiy me'yorlari va odatlarini olib kirdilar. Movarounnahr, Eron, Shim. Afrika, Hindiston, Indoneziya kabi yirik tarixiy-madaniy mintaqalarda Islom o'ziga xos xususiyatlar kasb etadi. Mana shu ta'qiqlangan ishlar natijasida Sharqiy arab mamlakatlarida dastgoxlik tasviriy san'atning rivojlanishi birmuncha qiyin bo'ladi. Uning o'rne esa qo'lyozma kitoblarga ishlangan bezaklar-miniatyura san'ati

egallaydi.

Miniatyurani yuzaga kelishida rivojlanish arab tilida badiiy adabiyotning. ravnaqi, kitobning qadimdan ilmu ma'rifat manbaai sifatida yuksak qadrlanganidan dalolat beradi. Miniatyura kaligrafiya, saxifalarni ziynatlash, muqova bezagi bilan bir qatorda qo'lyozmaning eng asosiy murakkab dekorativ elementlaridan birini tashkil qilar edi. Miniatyuraning asosiy ahamiyati tekst mazmunini tushuntirish va umuman olganda dunyoviy xarakterga ega bo'lgan asarlarni bezashdan iborat edi. Asosan proza, poeziya, ilmiy traktatlar, tarixiy xronikalar aks etgan asarlarga miniatyura ishlangan. Ular orasida «Kalila va Dimna» xikoyalari grek vrachi Dioskoritning «Farmologiya», Rashiddinning «Jam'iut tavorix» asarlari bor edi. ARAB MINIATYURA SAN'ATIDA KITOB BEZAKCHILIGINI RAVNAQ TOPISHI. O'rta asr musulmonlarining qadimgi kulyozmalari faqatgina guash bo'yoqlar bilan ishlangan. Bu bo'yoqlarni tayyorlash usuli Yaqin Sharqqa VIII asrda O'rta Osiyo orqali xitoydan o'tgan. Madaniyat markazlarini vayron qilgan, tez-tez sodir bo'lib turgan boskinchilik urushlari tufayli ilk arab miniatyuralari deyarli saqlanib qolmagan. Bizgacha yetib kelmagan arab miniatyurachilarining asarlari ko'p bo'lmay ular xam asosan XIII asrga taalluqlidir.

miniatyurasining o`ziga xos uslubi

Xozirgi vaqtga kelib, arab miniatyuralarini o`rganuvchi mutaxassislar, qo`lyozmalarni bezashni uchta davri va regional badiiy markazi mavjud ekanini e'tirof etadilar. Bular fotimiylar sulolasi davri (IX-X- XI) Suriya (XII asrning birinchi yarmi) va Iroq (yoki Boqdod) XIII asr miniatyura maktablari. Bularning markazlari Ma'sul, Boqdod va Vosit shaharlarida bo`lgan. Shartlilik va dekorativlilik prinsiplari asosida ko`rilgan o`ziga xos ko`rinishi bo`lgan arab miniatyuralari O`rta asr Sharq rang tasviri sifatida o`zining takrorlanmas obrazli badiiy tiliga egadir. Miniatyuralarning o`ziga xos xususiyatlaridan biri tasvir- ning satx yuzidaligidadir. Bu xususiyat qo`lyozmaning dekorativ uslub (serxasham) ziynatlar, shams, lavxalar, zarvarak va boshqa bezaklari kabi kitobning ziynatlari, uning tuzilishi xarakteridan kelib chiqqan. Bizga ma'lum bo`lganlik arab miniatyuralar fotimiylar sulolasi davrida ishlangan bo`lib, XI asrga taalluqlikdir. Oxorlangan qoqozga ishlangan odamlar qiyofasi xatti xarakatlari sodda va yaxlit xolda tasvirlangan.

Suriya qo`lyozmalari bulmish Dioskoritning «Farmokologiya» si, «Kalila va Dimna» asarlariga ishlangan bezaklar XIII asrning boshlari va o`rtalarida arab miniatyurachiligiga Vizantiya va Sosoniylar (qadimgi Eron) san'atining kuchli ta'siriga qaramasdan Yangi bir bosqichni boshlab beradi. Ba'zi bir xil qo`lyozmalarda, masalan, XIII asrning birinchi yarmidagi («Muxtor al Xakim va Muxsin al Kalim») Al muboshirning «Tanlab olingan dono fikrlar va so`zlovchining go`zalligi» asari qo`lyozmasidagi rasmlar, manzara tasviri yoki me'morchilik ko`rinishlari bilan boyitilgan. Kishilar qiyofasining tasvirida tabiiylikka intilingan. Kiyimlarning buklanganligi tasvirlangan.

Arab kitob bezakchiligining ravnaq topishi davrini Iroq maktabi miniatyurachiligi boshlab berdi. Dioskoritning «Farmokologiya» asari qo`lyozmasi ana shu maktabga taalluqlikdir. Bu qo`lyozmaning bezagini xam Abdalla Ibn Fadl ishlagan deb tan olingan. «Farmokologiya» asaridagi miniatyuralar xam boshqa asarlardagi kabi, tekstni tushuntirib berilgan uslubda lo`nda qilib tasvirlangan. Mana shu ma'noda tozaligichning qurilishini tushuntirayotgan Dioskoritning tasvirlovchi miniatyura diqqatga sazovordir⁷.

Miniatyura aniq kontura bilan ko`rsatilgan va yorqin bo`yoqlarga bo`yalgan katta figuralar va predmetlar aniq ko`rinib turgan tekstlar orasidagi sariq fonida aks etgan Iroq maktabining eng

7 [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

www.ziyouz.com кутубхонаси" dan olindi

ajoyib asarlaridan biri Al Xaririylning Abu Zayd as-Sarujdi (o`rta asrdagi Nasriddin Afandining prototipi) ning boshidan kechirganlarini tasvirlab beruvchi «maqom» asariga ishlangan illyustrasiyalardir.

«Maqom» asariga ishlangan Yaxyo ibn Maxmud ishlagan. Ularning xilma-xilligi bilan odamni lol qoldiradi. Bular bozordagi masjid, qozixonadagi ko`rinishlar, Shodiyona ziyofatlar, qabul qilish marosimi, afsonaviy voqealar, xayvonlarning ajoyib tasvirlari, xayotiy voqealarning butun real borliqlarini ikkala rassom xam turli xarakatlar orqali chizgan rassomlar asaridagi arxitektura tasviri aloxida e`tibor beradilar.

O`ziga xos ko`rinishga ega bo`lgan xovlilar, go`yo bu xovlilarning devori olib tashlanganu, tomoshabin uning ichini ko`rib turganday.

«Makom» asarida xayvonlar ayniqsa, qadimdan arablar tomonidan e'zozlab kelingan tuyalar juda jonli qilib tasvirlangan. Manzarani tasvirlashda esa ko`m-ko`k yashnab turgan o`tloq tasviri tushirilgan torgina yo`l yoki bo`lmasa ekzotik o`simliklar va daraxtlar tasviri tushirilgan uncha baland bo`lmagan tepaliklarni Al Xaririyl asarida ko`rish mumkin. Yaxyo ibn Maxmud «Tuyalar karvoni» miniatyurasida o`tlayotgan pada ifoda etilgan. Xayvonlardan biri uzun bo`yini cho`zib o`tlayotgan bo`lsa, boshqalari boshlarini tekis ko`targan xolda turishibdi. Bir-birini orqasidan ketma-ket joylashgan bu xayvonlar rang jixatidan xam bir-biridan farq qiladi. Bu esa rasmdagi ranglar uyqunligini aloxida bo`rttirib ko`rsatadi. Ba'zi bir xil miniatyuralarida biz arab rassomlarining bitta kenglikda rang-barang kiyim-kechak va boshqa kiyimlari bilan ajralib turgan personajlarni katta bir gurux sifatida tasvirlashga urunganliklarini sezamiz. Bunga misol qilib Yaxyo ibn Maxmudning «Bayram sayli» miniatyurasini ko`rishimiz mumkin. Bu miniatyuralarda bayroqlar ko`tarib olgan otliqlarning do`mbira, karnay chalib, bayram shodiyonasi boshlanganligidan xabar berishayotganligi aks ettirilgan. Ular barvasta gavdali kiyqir burun, ko`zlari xam yirik-yirik kishi qiyofasida tasvirlangan. Ularni ichki dunyosi, xarakatlari, bir qarashdayoq ko`zga tashlangan xolatlari va kiyimlari orqali aks ettirishga xarakat qilingan. Ba'zi bir kishilar boshini oltin olov tasviri o`rab turibdi. Xristian san'atida bu tasvir san'at vositasi e'tiborli diniy arboblarni bildirsa, arab miniatyuralarida esa, bular asosan dekorativ axamiyatga ega xolos. .XII-XIII asrlar arab miniatyuralarini obrazi qurilishini «Ming bir kecha» ertaklarida real va fantastik, yorqin va ta'sirchan, rang-barang lavxalar bilan xam tenglashtirishadi.

Arab miniatyura san'ati jaxon madaniyati san'at tarixida miniatyura san'ati va kitob bezakchiligini rivojlantirishda butun dunyoga tanilgan edilar.

XULOSA.

Arablar yuksak madaniyat yaratganlar. Bu madaniyat tarixga Arab xalifaligi madaniyati nomi bilan kirdi.

Xo'sh, buning sabablari nimalardan iborat edi?

Avvalo, Arab xalifaligida nisbatan tinch, osoyishta hayot ta' minlangan. Bu esa xo'jalik (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdosotiq)ning yanada yuksalishiga imkon bergan. Bu omil o'z navbatida madaniyatning taraqqiy etishiga shart-sharoit yaratgan.

Ikkinchidan, istilo natijasida xalifalikka birlashtirilgan turli o'lka xalqlari (Suriya, Misr, Eron; o'rta Osiyo, Kavkazorti, Shimoliy Hindiston)ning ilg'or madaniyati imkon qadar bir-birini boyitdi. Bu o'rinda yagona davlat tili - arab tilining ilm-fan tiliga aylanganligi katta rol o'ynagan. Buyuk allomalar qaysi xalq vakillari bo'lmasin, arab tilida ijod qilganlar. Bu omil xalifalik tarkibidagi turli xalqlarga bir-birining madaniyati yutuqlaridan foydalanishga imkon yaratgan. Binobarin, xalifalik madaniyatini faqat arablar emas, xalifalik tarkibiga kirgan barcha xalqlar yaratganlar.

Uchinchidan, arablar ham o'zlari istilo etgan o'lka xalqlarining ilg'or madaniyati durdonalarini qunt bilan o'rganganlar.

To'rtinchidan, Mansur, Horun ar-Rashid, Ma'mun kabi abbosiy xalifalar ilm-fan, madaniyat rivojiga homiylik qilganlar. Bu omillar, shubhasiz, madaniyatning yuksak darajada taraqqiy etishini ta'minlagan. 19-asr boshidan 20-asrning 2-yarmigacha o'tgan bir yarim asrlik davr islomning rivojlanishida muhim burilish bosqichi bo'ldi. Sharq mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishidagi o'zgarishlar yangi sinf — milliy burjuaziyaning vujudga kelishi, milliy ozodlik qarakatining avj olishi — bularning hammasi I.ning jamiyatdagi mavqeiga bo'lgan qarashlarda ham, ijtimoiy hayotdagi yangiliklarni I. nuqtai nazaridan baholashda ham o'zgarishlar yasadi. Islom diniy-falsafiy va huquqiy me'yorlarining yangi tarixiy sharoitga moslashish jarayoni 19-asr o'rtalaridan boshlanib, hozirgacha davom etmoqda. Bu jarayonni ko'pgina tadqiqotchilar "Islom islohotchiligi" deb ataydilar, u xristian reformatsiyasidan tubdan farq qiladi. Bu tafovut, birinchidan, shundan iboratki, mazkur jarayonlar turli davrlarda, turlicha muayyan tarixiy sharoitlarda ro'y berdi. Ikkinchidan, "Islom islohotchiligi" dunyoviy hayotning turli jihatlarini diniy nuqtai nazardan qayta baholashda namoyon bo'ldi va sof ilohiyotga doir masalalarga u qadar daxli bo'lmadi. Uchinchidan, Islomda xristianlarnikiga o'xshash cherkov b-n ruhoniylarni bog'lab turuvchi tizim bo'lmaganidan Islomdagi islohotlar xususiyatiga jiddiy ta'sir qildi⁸.

⁸ Ўзбекистон миллий энциклопедияси». Давлат илмий нашриёти.

Foydalanilgan adabyotlar .

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси». Давлат илмий нашриёти.
2. Hasanov A., Qadimgi Arabiston va ilk islom (1-kitob: Johiliya asri), T., 2001;
3. Komilov N., Tasavvuf, T., 1999;
4. Husniddinov., Islom: yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar, T., 2000
5. Sharq minatyurasi" Toshkent 1980 yil.
6. "Me'mor san'ati" Toshkent 1978 yil.
7. Sharq minatyura maktablari 1983 yil.